

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING O'RNI

Iskandarova Muxsinabonu Doniyor qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonidagi faolligini oshirishda interaktiv o'qitish metodlarining ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchining bilimni passiv ravishda emas, balki faol ishtirok orqali egallashi muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham interaktiv metodlar – aqliy hujum, munozara, rolli o'yinlar, guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat yaratish kabi usullar orqali o'quvchilarni darsga jalb etish samarali yo'l sifatida qaraladi. Maqolada ushbu metodlarning mazmuni, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish yo'llari hamda natijaviylik jihatlari tahlil etadi. Shuningdek, interaktiv metodlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, savol berish va muloqotga kirishish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.*

Kirish so'zlar: *rolli o'yinlar, suhbat metodi, muhokama metodi, interaktiv metodlar.*

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, faolligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi — o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim poydevor hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish, darsga faol ishtirok etish, yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish zarur. An'anaviy dars metodlari o'quvchilarni faollikka undashda yetarli darajada samara bermasligi mumkin. Shu sababli zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin ifoda etadi, savol beradi, guruhda ishlaydi, muammoga echim izlaydi — bu esa ularning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi.

Muhokama va natijalar

Rolli o'yinlar — bu ishtirokchilar muayyan rollarni o'z zimmasiga olib, shu rol asosida harakat qiladigan o'yinlar turidir. Bunday o'yinlarda o'yinchilar voqealarga yoki muammolarga qanday munosabat bildirishlarini o'z rollari doirasida namoyon etadilar.

Rolli o'yinlar – bolalarni mustaqil fikrlashga, jamoada ishlashga va nutqining rivojlanib, dunyoqarashning kengayishiga yordam beradi.

Rolli o'yinlar turli shakllarda bo'lishi mumkin:

- Pedagogik rolli o'yinlar (ta'limiy maqsadlarda)
- Psixologik rolli o'yinlar (muomala va o'zini anglash uchun)
- Ijtimoiy rolli o'yinlar (jamiyatdagi rollarni tushunish uchun)
- Kompyuter va stol usti rolli o'yinlar (ko'proq dam olish va ko'ngil ochar maqsadda)

Rolli o'yinlarni ko'p o'ynash orqali bola jamiyatda o'z o'rnini bemalol topa oladi va dunyoqarashi kengayib, jamiyat bo'layotgan hodisalarga o'zi erkin fikr bildiradi.

1-4- sinflarda asosan rolli o'yinlarni ko'proq o'ynatish kerak. Chunki bolalarda ham nutq rivojlanadi, hamijtimoiylashuv shakllanadi.

Suhbat metodi — bu o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot asosida bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitish usulidir. Bu metodda savol-javob, fikr almashish, tushuntirish va muhokama asosiy vosita bo'ladi.

Suhbat o'qituvchi bilan o'quvchi (yoki o'quvchilar o'zaro) o'rtasidagi faol muloqot orqali amalga oshadi va ularning fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Suhbat metodining asosiy maqsadi:

- O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash
- Savollarga asoslangan o'rganish orqali bilimni chuqurlashtirish
- Muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish
- Yangi bilimlarni ilgari o'rganilgan bilimlar bilan bog'lash

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan rolli o'yinlardan, muhokamali metodlardan, suhbat va interaktiv metodlardan foydalanish juda foydalidir. Chunki bolalarning nutqi rivojlanadi, shaxsiy fikri shakllanib, jamiyatda o'z o'rnini topadi. Rolli o'yinlar bolani nutqiy jihatdan rivojlantirsa, suhbat metodiga oid o'yinlar bolani jamiyatda shakllanib, o'z o'rnini topishiga va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.